

**HAL ELROD QALAMIGA MANSUB “THE MIRACLE MORNING”
ASARINI INGLIZ TILIDAN O’ZBEK TILIGA SO’ZMA-SO’Z TARJIMA
QILISH JARAYONIDAGI MUAMMOLAR TAHLILI**

Ramazonov Shohruh Nusratillo o’g’li

Termiz Davlat Universiteti

Xorijiy filologiya fakulteti

Ingliz tili va adabiyoti kafedrası

E-mail: rshakhrookh@gmail.com

Yoqubova Irodaxon Shuhrat qizi

Termiz Davlat Universiteti

E-mail: irodayoqubova@gmail.com

ANNOTATSIYA

Mazkur maqola Hal Elrod qalamiga mansub bo’lgan “The Miracle Morning”, ya’ni “Mo’jizaviy tong” asarini ingliz tilidan o’zbek tiliga so’zma-so’z o’g’irish jarayonida duch kelingan muammolar va ularning tahlili haqida. Maqolada tarjima jarayonida foydalanilgan morfologik transformatsiya haqida ham ma’lumot berildi.

Kalit so’zlar: so’z turkumi, leksema, so’z o’zgarishi, morfema, fe’l birikmasi, nisbiy olmosh, ergash gap.

**THE ANALYSIS OF PROBLEMS IN THE PROCESS OF WORD-FOR-
WORD TRANSLATION OF THE WORK “THE MIRACLE MORNING” BY
HAL ELROD FROM ENGLISH TO UZBEK**

ABSTRACT

This article is about the problems encountered in the process of word-for-word translation of “The Miracle Morning” written by Hal Elrod from English to Uzbek and their analysis. In the article, information was also provided about the morphological transformations used in the translation process.

Key words: word class, lexeme, inflection, morpheme, phrasal verb, relative pronoun, relative clause.

KIRISH

Hal Elrod 1979-yilda Amerika Qo‘shma Shtatlarida, Kaliforniya shtatida tug‘ilgan. U motivatsion spiker, yozuvchi va shaxsiy rivojlanish bo‘yicha murabbiy sifatida tanilgan. Hal Elrod o‘zining “The Miracle Morning” asari bilan dunyoga mashhur bo‘lib, ushbu kitob orqali odamlarni ertalabki odatlarini yaxshilash va hayot sifatini oshirishga undaydi. Uning hayoti davomida yuz bergan og‘ir sinovlar ham uning dunyoqarashi va kitob yozishiga katta ta‘sir ko‘rsatgan. Asar 2012-yilda nashr etilgan va butun dunyoda juda ko‘p o‘quvchilarni ilhomlantirgan. Muallifning fikricha, ko‘pchilik odamlar hayotini ongli ravishda boshqarmaydi — ular shunchaki odatga ko‘ra yashaydi. Natijada esa o‘z imkoniyatlarining faqat kichik qismini ishlatadi. Shuning uchun u shunday savol qo‘yadi: "Nega siz o‘zingiz xohlagan darajadagi hayotda yashamayapsiz?" Hal Elrod o‘z hayotidagi og‘ir sinovlar (avtohalokat va moliyaviy qiyinchiliklar)dan keyin aynan ertalabki odatlar yordamida muvaffaqiyatga erishganini aytadi. U har kim o‘z hayotini o‘zgartirishi mumkinligini isbotlashga harakat qiladi.

Hal Elrod was born in 1979 in the United States, in the state of California. He is known as a motivational speaker, author, and personal development coach. Hal Elrod became world-famous with his book “The Miracle Morning”, through which he encourages people to improve their morning habits and enhance the quality of their lives. The difficult challenges he faced throughout his life also had a significant impact on his worldview and on writing the book. The book was published in 2012 and has inspired millions of readers around the world. According to the author, most people do not consciously control their lives — they simply live according to their habits. As a result, they use only a small part of their true potential. That is why he asks the question: “Why aren’t you living the life you truly want?” Hal Elrod states that after experiencing severe life challenges (a car accident and financial difficulties), he achieved success by developing strong morning habits. He aims to prove that anyone can change their life.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYASI

Ushbu maqolani yozishda ingliz tilidan o'zbek tiliga tarjima qilishda izlanishning chog'ishtirma, qiyosiy, tahliliy, statistic metodlaridan foydalanildi.

Chog'ishtirma metod - turli tizimli tillardagi xususiyatlarning o'xshash va farqli jihatlarini tahlil qilish usulidir.

Qiyosiy metod - bir til oilasiga mansub bo'lgan tillarning o'zaro o'xshash va farqli jihatlarini tahlil qilish usulidir.

Ushbu asarni ingliz tilida o'zbek tiliga tarjima qilishda ko'plab transformatsiyalar amalga oshirildi. Jumladan, morfologik transformatsiyalar qo'llanildi. Quyida asarda uchragan gaplar misolida morfologik tahlillarni ko'rib chiqildi: "You are just as worthy, deserving, and capable of creating and sustaining extraordinary health, wealth, happiness, love, and success in your life, as any other person on earth"- "Siz ham yer yuzidagi har qanday boshqa inson kabi hayotingizda ajoyib sog'liq, boylik, baxt, sevgi va muvaffaqiyatni yaratish va uni saqlab qolishga xuddi shunchalik munosib, loyiq va qodirsiz."

Tahlil:

You – olmosh (pronoun), 2-shaxs birlik, are – fe'l (to be), hozirgi zamon (Present Simple), just – ravish (adverb), kuchaytiruvchi, as ... as – qiyoslov konstruktsiyasi (comparison), worthy, deserving, capable – sifatlar (adjectives), creating, sustaining – gerund (fe'lning -ing shakli), otlashgan fe'l, extraordinary – sifat, health, wealth, happiness, love, success – otlar (nouns), abstract, in – predlog, your – egalik olmoshi, life – ot, any other person – aniqlovchi + ot, on earth – predlogli birikma. "You must first dedicate time each day to becoming the person you need to be..."-"Siz avvalo har kuni o'zingiz bo'lishingiz kerak bo'lgan insonga aylanish uchun vaqt ajratishingiz shart." You – olmosh, must – modal fe'l (majburiyat), dedicate – asosiy fe'l (infinitivsiz), time – ot, each day – aniqlovchi vaqt birikmasi, to becoming – gerund (to + -ing), the person – ot + artikl, need – fe'l, to be – infinitive. "...one who is qualified and capable of consistently attracting, creating, and

sustaining the levels of success you want.”-“...ya’ni siz xohlagan darajadagi muvaffaqiyatni doimiy ravishda jalb qila oladigan, yaratadigan va uni saqlab qola oladigan malakali va qobiliyatli inson.” One – olmosh (kimdir), who – nisbiy olmosh (relative pronoun), is – fe’l, qualified, capable – sifat, of attracting, creating, sustaining – gerundlar, consistently – ravish, levels – ko‘plikdagi ot, of success – aniqlovchi, you want – ergash gap (relative clause). “How you wake up each day and your morning routine dramatically affects your levels of success...”-“Har kuni qanday uyg‘onishingiz va ertalabki odatlaringiz sizning muvaffaqiyat darajangizga juda katta ta’sir ko‘rsatadi.” How – so‘roq/nisbiy ravish, you wake up – fe’l birikmasi (phrasal verb), each day – vaqt birikmasi, your morning routine – egalik + ot, affects – fe’l (Present Simple, 3-shaxs), dramatically – ravish, levels of success – ot birikmasi. “Focused, productive, successful mornings generate ... days.”-“Diqqatli, samarali va muvaffaqiyatli ertalablar shunday kunlarni yuzaga keltiradi.” Focused, productive, successful – sifatlar, mornings – ot (ko‘plik), generate – fe’l, days – ot. “By simply changing the way you wake up in the morning, you can transform any area of your life...”-“Faqatgina ertalab qanday uyg‘onishingizni o‘zgartirish orqali siz hayotingizning istalgan sohasini o‘zgartira olasiz.” By changing – gerund (usulni bildiradi), simply – ravish, the way – ot birikmasi, you wake up – fe’l, can transform – modal fe’l + asosiy fe’l, any area – aniqlovchi + ot, of your life – predlogli birikma.

XULOSA

Hal Elrodning “The Miracle Morning” asari shaxsiy rivojlanish sohasida muhim o‘rin egallagan motivatsion kitoblardan biridir. Asarning asosiy mazmuni inson hayotini o‘zgartirish uchun katta inqilobiy qadamlar emas, balki kundalik kichik odatlarni to‘g‘ri shakllantirish muhim ekanligini ko‘rsatishga qaratilgan. Muallif ertalabki vaqtni samarali tashkil etish orqali inson o‘z hayotining barcha jabhalarini — sog‘liq, moliya, munosabatlar va shaxsiy rivojlanishni — yaxshilashi mumkinligini ta’kidlaydi. Asar tahlil qilinganda, undagi eng muhim g‘oya shundan iboratki, insonning hayotdagi muvaffaqiyati uning ichki rivojlanish darajasiga bevosita bog‘liq. Ya’ni, agar inson o‘z ustida ishlamasa,

yangi bilim va ko‘nikmalarni egallamasa, u katta natijalarga erisha olmaydi. Hal Elrod bu fikrni oddiy, ammo samarali tizim — S.A.V.E.R.S modeli orqali tushuntiradi. Bu tizim sukunat, ijobiy tasdiqlar, tasavvur qilish, jismoniy mashqlar, kitob o‘qish va yozish kabi olti muhim odatdan iborat bo‘lib, ular insonning aqliy, jismoniy va ruhiy rivojlanishiga xizmat qiladi.

Asarda yana bir muhim jihat shundaki, muallif o‘z hayotiy tajribasiga tayangan holda fikr yuritadi. U og‘ir avtohalokat va moliyaviy qiyinchiliklarni boshdan kechirganidan so‘ng, hayotini qayta tiklash uchun aynan ertalabki odatlarni shakllantirishga e‘tibor qaratadi. Bu esa kitobning ishonchliligini oshiradi va o‘quvchiga real hayotiy misol orqali ta’sir qiladi.

Xulosa qilib aytganda, “The Miracle Morning” asari insonni o‘z hayotiga mas’uliyat bilan qarashga, har bir kunni maqsadli boshlashga va o‘z ustida muntazam ishlashga undaydi. Bu kitob faqat motivatsiya bermaydi, balki aniq harakatlar orqali hayotni o‘zgartirish mumkinligini amaliy tarzda ko‘rsatadi. Shuning uchun ham u dunyo bo‘ylab millionlab odamlar tomonidan yuqori baholangan va foydali qo‘llanma sifatida o‘qib kelinmoqda.

REFERENCES

1. Elrod, H. (2012). *The Miracle Morning: The Not-So-Obvious Secret Guaranteed to Transform Your Life*.
2. Elrod, H. (2018). *The Miracle Morning for Entrepreneurs*.
3. Swan, M. (2016). *Practical English Usage*. Oxford University Press.
4. Murphy, R. (2019). *English Grammar in Use*. Cambridge University Press.
5. Quirk, R., Greenbaum, S. (1990). *A Comprehensive Grammar of the English Language*. Longman.
6. Crystal, D. (2003). *The Cambridge Encyclopedia of the English Language*. Cambridge University Press.

7. Thomson, A. J., & Martinet, A. V. (1986). *A Practical English Grammar*. Oxford University Press.
8. Huddleston, R., & Pullum, G. K. (2002). *The Cambridge Grammar of the English Language*. Cambridge University Press.
9. Carter, R., & McCarthy, M. (2006). *Cambridge Grammar of English*. Cambridge University Press.
10. Swan, M. (2005). *Basic English Usage*. Oxford University Press.